

ZARAFSHON IQTISODIY MINTAQASI IQTISODIY RIVOJLANISHINING MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI.

Azimov Bobir Fattohevich

Ilmiy rahbar Osiyo Xalqaro Universiteti dotsenti

Tolibov Mirshod Mirjon o‘g‘li

Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Zarafshon iqtisodiy mintaqasining barqaror rivojlanishini ta’minlashda hududning makroiqtisodiy holatini tizimli tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida milliy hisoblar, kichik biznes va tadbirkorlik ko‘rsatkichlari, yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, aholi jon boshiga YaIM va norasmiy iqtisodiyot hajmi o‘rganildi. Natijalar 2019–2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi va Zarafshon iqtisodiy mintaqasiga kiruvchi Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari bo‘yicha iqtisodiy o‘rta, diversifikatsiya va barqarorlik tendensiyalarini ko‘rsatadi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, mintaqadagi viloyatlar farqlanishiga qaramay, aholi jon boshiga YaIM va kichik biznesning ulushi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlari sifatida ahamiyat kasb etadi. Mazkur natijalar hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirish, resurslarni taqsimlash va barqaror iqtisodiy o‘rta sishni rag‘batlantirishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Zarafshon iqtisodiy mintaqasi, Hududiy iqtisodiy rivojlanish, Yalpi ichki mahsulot (YaIM), Aholi jon boshiga YaIM, Norasmiy va yashirin iqtisodiyot, Kichik tadbirkorlik, Iqtisodiy diversifikatsiya, Barqaror rivojlanish, Hududiy tafovutlar, Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Zarafshon iqtisodiy mintaqasining barqaror rivojlanishini ta’minlashda hududning makroiqtisodiy holatini chuqur va tizimli tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda milliy hisoblar hamda kichik biznes va tadbirkorlik yo‘nalishidagi asosiy ko‘rsatkichlarning o‘rganilishi mintaqa iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish quvvati va iqtisodiy o‘rta sish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining choraklik tahlili mintaqada iqtisodiy faollik darajasi, ishlab chiqarish jarayonlarining mavsumiyligi hamda qisqa muddatli o‘rta sish yoki pasayish tendensiyalarini aniqlashda muhim hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich orqali hudud iqtisodiyotining umumiy holati va rivojlanish sur‘atlari baholanadi.

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmining yillik tahlili esa iqtisodiy rivojlanish natijalarining aholi farovonligiga qay darajada ta’sir ko‘rsatayotganini aniqlash

imkonini beradi. Mazkur ko‘rsatkich hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni baholash, iqtisodiy o‘rta o‘rta inklyuzivlik darajasini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Hududlar bo‘yicha jami norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmining o‘rganilishi iqtisodiy faoliyatning rasmiy statistikadan tashqarida qolayotgan qismini aniqlash, soliq bazasining kengaytirilish imkoniyatlarini baholash hamda iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan dolzarbdur. Ushbu ko‘rsatkich mintaqa iqtisodiyotining shaffoflik darajasi va institutsional rivojlanish holatini tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushini tahlil qilish hudud iqtisodiy rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu ko‘rsatkich ishlab chiqarish tuzilmasini diversifikatsiyalash, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hudud iqtisodiyotining moslashuvchanligini oshirishdagi kichik biznesning ahamiyatini ochib beradi.

Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (choraklik)

2.1.1-jadval

joriy narxlarda, mlrd.so‘m

T/r	Hudud nomi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	O‘zbekiston Respublikasi	1418771,6	1132375,8	1956383,4	2377909,4	2861045	3562296,2
Zarafshon iqtisodiy mintaqasida							
1	Buxoro viloyati	73847,4	57994,9	100115	119802,9	142050,4	168242,8
2	Navoiy viloyati	94112,7	92850,2	154362,1	180496,5	211470,3	289326
3	Samarqand viloyati	102520,6	77296,6	138408,5	161937,8	196052,1	240507

Yalpi ichki (hududiy) mahsulot (YaIH) hudud iqtisodiy rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy faollik darajasi hamda hududning umumiy iqtisodiy salohiyatini aks ettiradi. 2019–2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi hamda Zarafshon iqtisodiy mintaqasiga kiruvchi viloyatlarda YaIH hajmining o‘zgarish dinamikasi tahlil qilindi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yalpi ichki mahsulot hajmi 2019 yilda 1 418 771,6 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilda global pandemiya ta’siri ostida 1 132 375,8 mlrd so‘mgacha kamaygan. Biroq 2021 yildan boshlab iqtisodiyotda tiklanish jarayonlari kuzatilib, YaIM hajmi 2024 yilga kelib 3 562 296,2 mlrd so‘mga yetgan. Mazkur holat mamlakat miqyosida iqtisodiy islohotlar, investitsion faollik va ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi bilan izohlanadi. Zarafshon iqtisodiy mintaqasi

kesimida qaralganda, barcha viloyatlarda 2020 yilda YaIH hajmining pasayishi kuzatilgan. Jumladan, Buxoro viloyatida YaIH 2019 yildagi 73 847,4 mlrd soʻmdan 2020 yilda 57 994,9 mlrd soʻmgacha kamaygan. Shunga qaramay, keyingi yillarda iqtisodiy faollik tiklanib, 2024 yilda mazkur koʻrsatkich 168 242,8 mlrd soʻmga yetgan. Bu esa 2019 yilga nisbatan qariyb 2,3 barobar oʻsishni anglatadi. Navoiy viloyati Zarafshon mintaqasida eng yuqori YaIH hajmiga ega hududlardan biri sifatida ajralib turadi. 2019 yilda 94 112,7 mlrd soʻmni tashkil etgan YaIH hajmi 2024 yilga kelib 289 326 mlrd soʻmgacha oshgan. Mazkur oʻsish, avvalo, sanoat ishlab chiqarishi, togʻ-kon sanoati, eksport yoʻnaltirilgan yirik korxonalar va investitsiya loyihalarining yuqori ulushi bilan bogʻliq. Samarqand viloyatida esa YaIH hajmi 2019 yildagi 102 520,6 mlrd soʻmdan 2020 yilda 77 296,6 mlrd soʻmgacha pasaygan boʻlsa-da, 2021 yildan boshlab barqaror oʻsish trendi shakllangan. 2024 yilda ushbu koʻrsatkich 240 507 mlrd soʻmni tashkil etib, viloyat iqtisodiyotida xizmatlar sohasi, qishloq xoʻjaligi va turizmning muhim oʻrin egallayotganini koʻrsatadi.

Hududlar boʻyicha jami norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi

2.1.2-jadval

milliy valyutada, mlrd. soʻm

T/r	Hudud nomi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Oʻzbekiston Respublikasi	241254,6	262630,5	318166	360525,8	434140,4	527360,9
Zarafshon iqtisodiy mintaqasida							
1	Buxoro viloyati	17851	20047,6	23554,5	26032,9	31375,5	36078,6
2	Navoiy viloyati	10719,6	11505,8	13908,2	15379,1	19134	22801,5
3	Samarqand viloyati	24212,9	25456,8	31551,6	34743,2	42589,6	51443,5

Norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi iqtisodiyotning institutsional rivojlanganlik darajasi, soliqqa tortish tizimi samaradorligi hamda mehnat bozorining rasmiylashuv darajasini aks ettiruvchi muhim makroiqtisodiy koʻrsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu koʻrsatkichning hududlar kesimidagi tahlili iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda ijtimoiy siyosat samaradorligini baholash imkonini beradi. 2019–2024 yillar davomida Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi barqaror oʻsish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2019 yilda mazkur koʻrsatkich 241 254,6 mlrd soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024 yilga kelib 527 360,9 mlrd soʻmgacha oshgan. Bu holat iqtisodiy faollikning kengayishi, kichik biznes va xizmatlar sektorida norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi, shuningdek, ayrim sohalarda rasmiy hisobga olish mexanizmlarining yetarli

darajada takomillashmaganligi bilan izohlanadi. Zarafshon iqtisodiy mintaqasi kesimida tahlil qilinganda, barcha viloyatlarda norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmining yildan-yilga ortib borishi kuzatiladi. Buxoro viloyatida mazkur ko'rsatkich 2019 yilda 17 851 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 36 078,6 mlrd so'mgacha yetgan. Bu qariyb ikki baravar o'sishni anglatib, viloyatda xizmatlar sohasi, savdo va qishloq xo'jaligida norasmiy faoliyatning salmoqli ulushga egaligini ko'rsatadi. Navoiy viloyatida norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi nisbatan past bo'lsa-da, barqaror o'sish tendensiyasiga ega. 2019 yilda 10 719,6 mlrd so'm bo'lgan ushbu ko'rsatkich 2024 yilda 22 801,5 mlrd so'mgacha oshgan. Ushbu holat Navoiy viloyatida yirik sanoat korxonalarining ustunligi, ishlab chiqarish jarayonlarining nisbatan yuqori darajada rasmiylashtirilganligi bilan izohlanadi. Samarqand viloyati esa Zarafshon mintaqasida norasmiy va yashirin iqtisodiyot hajmi eng yuqori hudud sifatida ajralib turadi. 2019 yilda 24 212,9 mlrd so'mni tashkil etgan mazkur ko'rsatkich 2024 yilga kelib 51 443,5 mlrd so'mgacha oshgan. Bu viloyatda aholi sonining yuqoriligi, xizmatlar sohasi, turizm, savdo va oilaviy tadbirkorlikning keng rivojlanganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik)

2.1.3-jadval

joriy narxlarda, ming so'm

T/r	Hudud nomi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	O'zbekiston Respublikasi	18465,6	20596,9	24664,7	29226,7	34653,2	41306,7
Zarafshon iqtisodiy mintaqasida							
1	Buxoro viloyati	17325,6	18921	22746,3	26947,7	31424,4	35638,4
2	Navoiy viloyati	42902,1	60002,4	67561	75302,2	87905,7	120222,2
3	Samarqand viloyati	11734,3	12686,5	15440,4	17599,6	20731,6	24425,8

Aholi jon boshiga YaIM hudud iqtisodiyotining real daromad darajasi va yashash sharoitini baholashda muhim indikator hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich hudud iqtisodiyotining samaradorligi, ish o'rirlari sifatining darajasi va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish intensivligini aks ettiradi.

2019–

2024 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga YaIM barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatgan. 2019 yilda bu ko'rsatkich 18 465,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 41 306,7 ming so'mgacha yetgan. Bu o'sish milliy iqtisodiyotning umumiy rivojlanishidan dalolat beradi. Zarafshon iqtisodiy mintaqasi kesimida viloyatlar farqlanadi: **Buxoro viloyati**: 2019 yilda 17 325,6 ming so'mni tashkil etgan aholi jon boshiga YaIM 2024 yilga kelib 35 638,4 ming so'mgacha oshgan. Bu hudud

iqtisodiyoti barqaror rivojlanib borayotganini, xizmatlar, kichik sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining samarali ishlashini ko‘rsatadi.

Navoiy viloyati: Mazkur viloyatda aholi jon boshiga YaIM eng yuqori ko‘rsatkichga ega. 2019 yilda 42 902,1 ming so‘m bo‘lgan bu ko‘rsatkich 2024 yilda 120 222,2 ming so‘mgacha oshgan. Bu Navoiy viloyatining sanoat salohiyati, xususan, konchilik va sanoat ishlab chiqarishiga bog‘liq bo‘lib, hudud iqtisodiyotining yuqori kapitallashtirilgan va yuqori qo‘shilgan qiymatli sohalarga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi.

Samarqand viloyati: Aholi jon boshiga YaIM 2019 yilda 11 734,3 ming so‘mni tashkil etgan, 2024 yilga kelib 24 425,8 ming so‘mgacha oshgan. Bu o‘shish turizm, xizmatlar va kichik biznesning barqaror rivojlanishi bilan bog‘liq.

Aholi jon boshiga YaIM ko‘rsatkichlari mintaqaviy tafovutlarni yaqqol namoyon qiladi. Navoiy viloyatida yuqori sanoat salohiyati sababli aholi jon boshiga YaIM darajasi mintaqadagi eng yuqori bo‘lsa, Buxoro va Samarqand viloyatlari nisbatan pastroq qiymatga ega. Ushbu tafovutlar mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish, resurslarni taqsimlash va barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi

2.1.4-jadval

foiz

T/r	Hudud nomi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	O‘zbekiston Respublikasi	58,5	57,5	56,9	54,6	54,3	54,3
Zarafshon iqtisodiy mintaqasida							
1	Buxoro viloyati	75,8	76,6	77,1	74,1	72,5	73
2	Navoiy viloyati	33,7	27,8	29,2	27,9	28,1	25,1
3	Samarqand viloyati	76,6	75	74,3	70,8	72,3	72,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi hudud iqtisodiyotining diversifikatsiyasi, kichik va o‘rta biznesning rivojlanish darajasi hamda aholi bandligiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadigan muhim indikator hisoblanadi. 2019–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 58,5% dan 54,3% gacha biroz pasaygan, bu umumiy iqtisodiy tuzilmaning sanoat va yirik ishlab chiqarish tarmoqlari tarafidan diversifikatsiyalashuvi bilan izohlanadi. Zarafshon iqtisodiy mintaqasi kesimida viloyatlar farqlanadi:

Buxoro viloyati: 2019 yilda YaIMdagi kichik tadbirkorlik ulushi 75,8% bo'lgan va 2024 yilga kelib 73% ga yetgan. Bu viloyatda kichik biznes iqtisodiy faollikning asosiy drayveri hisoblanadi va ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda chakana savdo tarmoqlarida sezilarli rol o'ynaydi.

Navoiy viloyati: Hududning sanoat salohiyati yuqori bo'lgani sababli, kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi past (2019 yilda 33,7%, 2024 yilda 25,1%). Bu ko'rsatkich mintaqada yirik konchilik va sanoat korxonalari YaIMning asosiy qismini tashkil etishini aks ettiradi.

Samarqand viloyati: Kichik tadbirkorlik ulushi 2019 yilda 76,6% bo'lib, 2024 yilga kelib 72,3% ga kamaygan. Bu hududda xizmatlar va turizm tarmoqlari, shuningdek kichik ishlab chiqarish subyektlari aholi jon boshiga YaIM va iqtisodiy diversifikatsiyada muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi viloyatlar kesimida katta farqlarni ko'rsatadi. Buxoro va Samarqand viloyatlarida kichik biznes mintaqa iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, Navoiy viloyatida esa yirik sanoat korxonalari va konchilik sektori ustun. Bu tafovutlar hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va ish o'rinlarini yaratishda strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. 2023. 1-modda. –B. 5.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi PF-37-son Farmoni.
4. Karpikova, I. S., & Shurygina, Y. Yu. (2024). Development Trends of Social Protection in the Context of Certain Categories of the Population. Теория и Практика Общественного Развития, 6. <https://doi.org/10.24158/tipor.2024.6.2>
5. Boyqobilova, P. (2021). On the Normative and Legal Basis of the System of Social Protection in Uzbekistan. Journal of Social Research in Uzbekistan, 01(01), 4–7. <https://doi.org/10.37547/jsru-01-02>
6. Korchagina, I. I., & Migranova, L. A. (2014). Social Assistance for Low Income Households on Terms of the Social Contract. Sociological Research, 53(4), 61–79. <https://doi.org/10.2753/sor1061-0154530403>

7. HIRSCH, D. (2013). Paying for Children: The State’s Changing Role and Income Adequacy. In Journal of Social Policy.